

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Kuzatuv kengashining
2023-yil "8- noyabrda
5-sonli bayonnomasiga
2-ilova*

Toshkent davlat yuridik universitetining 2023–2030 yillarga mo'ljallangan strategik rivojlanish dasturi (konsepsiyasi)

1-bob. Umumiy qoidalar

Toshkent davlat yuridik universitetining (keyingi o'rinlarda – Universitet yoki TDYU) 2023–2030 yillarga mo'ljallangan strategik rivojlanish dasturi (keyingi o'rinlarda – Dastur) Universitetda yuridik ta'lim va ilm-fanni takomillashtirishning konseptual yondashuvini belgilash maqsadida ishlab chiqildi.

Dastur davlat va jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tizimi rivojlanib borishi sharoitida TDYUda yuridik ta'lim va ilm-fanni takomillashtirish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, shuningdek raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot va yangi texnologiyalarni hisobga olgan holda yuridik ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishda yagona davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

2-bob. Yuridik ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishning umumiy tendensiyalari va xususiyatlari

Zamonaviy global iqtisodiy, ijtimoiy va raqamli o'zgarishlar dunyo mamlakatlari va bevosita O'zbekiston Respublikasi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ularni yangi texnologiyalar, bilim va ko'nikmalarsiz, innovasion va raqamli iqtisodiyotni yaratmasdan, huquqni muhofaza qilish organlari, ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim institutini tegishli huquqiy tartibga solmasdan turib bajarib bo'lmaydi.

Jamiyat va davlat uchun tizimli va tanqidiy tahlil qilish, prognoz qilish va mustaqil ravishda qarorlar qabul qila oladigan, jamoada ishlash, boshqarish hamda hamkorlik qilish qobiliyatiga ega, o'z taqdiri, xalq va mamlakat taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usi rivojlangan, jamiyatda huquq ustuvorligi va adolatni ta'minlaydigan, bilimli, axloqiy, ijodiy va malakali shaxslar kerak.

Yuqoridagi xususiyatlarga ega kadrlarni tayyorlash uchun milliy ta'lim tizimi, xususan, nafaqat oliy ta'limni, balki yuridik ta'limni barcha bosqichlarda

rivojlantirish va takomillashtirish zarur. Shuningdek, bunga mutanosib ravishda yuridik ilm-fanni isloh qilib borish talab etiladi.

Yuridik oliy ta'limni rivojlantirishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha bo'lgan ta'lim uchun Barqaror rivojlanish maqsadlari muhim rol o'ynaydi. Ushbu hujjat dunyodagi barcha ta'lim tizimlarini rivojlantirishning asosi bo'lib hisoblanadi. Unda inklyuziv va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barcha uchun umrbod ta'lim olish imkoniyatlarini rag'batlantirishga e'tibor qaratilgan.

Dunyoda ta'limni rivojlantirishning asosiy tendensiyalaridan biri – qobiliyat va iste'dodni to'liq ochib berish, shuningdek ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun o'quvchi shaxsiga yo'naltirish (individuallashtirish)dir.

Bu jihatdan talabani samarali kognitiv ta'lim va boshqa mustaqil faoliyatiga ko'proq e'tibor qaratiladi, uning doirasida tadqiqot va loyiha asosida o'qitishga o'tish, mustaqil ish zaxiralaridan foydalanish, o'z-o'zini rivojlantirish, namoyon qilish va kasbiy kelajagi uchun mas'uliyatli qarorlarni mustaqil qabul qilish uchun sharoit yaratish orqali amalga oshiriladi. Ta'limni individuallashtirish talabani individual xususiyatlarini hisobga olish, uning qobiliyatlari, o'zini-o'zi kashf qilishi va kasbiy o'zini namoyon qilishidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlashda yuqorida keltirilganlarga qo'shimcha ravishda, ularning ta'limi, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, “egiluvchan” (moslashuvchan) ko'nikmalar (soft skills) va raqamli ko'nikmalar (digital skills) va yangi bilimlarni tezda o'zlashtirish hamda qo'llashga qaratilgan ko'nikmalarni shakllantirish (meta skills) zamon talabiga aylangan.

Yagona ilmiy-ta'lim makonini shakllantirish va masofaviy ta'limni faol rivojlantirish uchun sharoit yaratadigan ta'limni axborotlashtirish, shuningdek jamiyatning raqamli transformasiyasi, “Sanoat 4.0” to'rtinchi sanoat inqilobiga o'tish va qo'shimcha ta'lim xizmatlarni kengaytirishni nazarda tutuvchi mehnat bozori ishtirokchilarini ixtisoslashtirish va qayta tayyorlashni majburiy o'zgartirishga yordam beradigan avtomatlashtirish ham alohida ahamiyatga ega.

Umuman, ta'lim tizimida yuridik kadrlar tayyorlash yuqoridagi maqsadlarga erishish bilan birga milliy huquq tizimining samarali faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Shu bilan birga, mamlakatimizda yuqori malakali yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy sharoitda yuridik mehnat bozori yuridik kadrlardan mijozlari dinamik harakatchanlikni, har tomonlama rivojlangan shaxsni, moslashuvchan, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni, milliy va xalqaro tendensiyalarni anglaydigan, turli xil ma'lumotlar bilan ishlay oladigan, butun hayot davomida o'zini-o'zi tarbiyalash vektorini qurishni talab qiladi.

Huquqshunosning yangi kompetensiyalari kasbiy amaliy xususiyatga ega bo'lib, bunda muloqot ko'nikmalari, huquqiy, iqtisodiy, axborot sohalari va kibermakonda erkin harakat qilish qobiliyati, malakali huquqiy yozish ko'nikmalari, ekspert va tahliliy faoliyat ko'nikmalari, global o'zgarishlarning murakkab majmuida milliy manfaatlarni himoya qilgan holda nafaqat milliy huquq tizimida, balki xalqaro tashkilotlarda ham ishlash yuqori baholanadi.

Yuridik ilm-fan sohasi mamlakatda huquq ijodkorligining tayanchi hisoblanib, uning asosiy maqsadi qonunchilik tashabbusi sub'ektlari hamda huquqni qo'llash organlari uchun ilmiy asoslangan va puxta tayyorlangan takliflarni tayyorlashdir. Shu nuqtai nazaridan, zamonaviy dunyoda globalizasiya jarayonlariga hos bo'lgan integrasiya va unifikasiya tendensiyalari, ilmiy-texnik progressi natijasida iqtisodiyotning yangi sohalari paydo bo'lishi va shu munosabat bilan ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar oqibatida vujudga keladigan yangi ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri tartibga solish yuridik ilm-fanning asosiy vazifalari va rivojlanishining yo'nalishlari sifatida qaraladi.

Yuridik ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishning asosiy xususiyatlari quyidagilarni nazarda tutadi:

yuqori darajadagi umumijtimoiy va huquqiy madaniyatga ega bo'lish, ilmiy-tadqiqot va amaliyotga yo'naltirilgan faoliyatga e'tibor qaratish, inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash va milliy manfaatlarni himoya qilish;

zamonaviy davlat-huquqiy, ijtimoiy-siyosiy va moliyaviy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarning mohiyatini ularning ob'ektiv murakkabligi va o'zaro bog'liqligida anglash;

huquqiy bilimlar metodologiyasini va yuridik faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirish, tez o'zgaruvchan huquqiy voqelikka mustaqil moslashish qobiliyati.

Hozirgi vaqtda yangi bosqichdagi vazifalarni bajarishga qodir huquqshunoslarni tayyorlashga so'zsiz ehtiyoj mavjudligi sababli, yuridik ta'lim bugungi va istiqbolning yangi muammolarini hal etishga qaratilgan o'zgarishlarga tayyor bo'lishi kerak.

3-bob. Yuridik ta'lim va ilm-fan sohasidagi joriy holat va asosiy muammolar

Hozirgi kunda yuridik kadrlar tayyorlash Yevropa kredit tizimi ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) asosida uch bosqichda – o'rta maxsus professional, bakalavriat va magistraturada 14 ta yuridik texnikum va 24 ta oliy ta'lim muassasasida amalga oshirilmoqda. Ushbu ta'lim muassasalarida jami **13 000** nafardan ortiq yuridik kadrlar tayyorlanmoqda.

Shu bilan birga, yurisprudensiya fani o'z ichiga 14 ta ixtisosliklarni qamrab olib, jamiyat hayotida vujudga keladigan deyarli barcha ijtimoiy munosabatlarni o'z tadqiqot ob'ekti sifatida tan oladi. 9 ta oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalar negizida 11 ilmiy kengash faoliyat yuritmoqda. Oxirgi 3 yil davomida (2021–2023 yillar) 210 ga yaqin doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan.

O'zbekistonda yuridik ta'lim va ilm-fan sohasida hozirgi kunda quyidagi tizimli muammolar kuzatilmoqda:

ta'lim sifatining pastligi, uning voqelik va amaliyotdan ajralganligi;

yuridik kadrlarga bo'lgan ehtiyojni prognozlash va mutaxassislar tayyorlashni rejalashtirishning samarali tizimining yo'qligi;

alohida ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni yuqori malakali pedagog kadrlar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi;

o'quv davrida amaliyotning past samaradorligi;

yuridik kadrlar tayyorlashning kompetensiya modelini shakllantirishga formal yondashuv;

zarur mutaxassisliklar va malakalarni aniqlashda izchillikning yo'qligi;

oliy yuridik ta'lim olish shakllari bo'yicha talabalarni taqsimlashda nomutanosiblik, yuridik ta'lim olishning sirtqi shakliga qabul qilinuvchilar tomonidan asossiz ustunlik berilishi, shuningdek ayrim ta'lim muassasalarida onlayn ta'limning joriy etilishi;

yuridik mehnat bozorining rivojlashish tendensiyalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga to'liq yo'naltirilmagan ta'lim standartlari, o'quv rejalari va o'quv dasturlari mavjudligi;

bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda ta'lim muassasalari va yuridik kadrlar buyurtmachilari o'rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada emasligi,

yuridik kadrlar buyurtmachilari bitiruvchilarga nisbatan talab va ehtiyojlarini yetarlicha yetkazib bera olmasliklari hamda va bu boradagi ijtimoiy mas'uliyatning pastligi;

tayanch bo'lmagan ta'lim muassasalari (nodavlat va xususiy oliy ta'lim muassasalari)da oliy ta'lim bosqichlarida yuridik kadrlar tayyorlashni amalga oshirish holatining sustligi, shuningdek ushbu muassasalar tomonidan "yurisprudensiya" ta'lim yo'nalishini ochish uchun **yuridik milliy standartlarning mavjud emasligi**;

yuridik ta'lim milliy tizimining turli darajadagi, jumladan mintaqaviy va xalqaro darajadagi raqobatbardoshligining yetarli darajada ta'minlanmaganligi;

yuridik ilm-fani yangi ijtimoiy munosabatlar vujudga kelish tendensiyalari hamda mavjud ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish tendensiyalari orqasidan son va sifat jihatidan qolib ketmoqda;

yuridik ilm-fan sohasida tadqiqotlarni olib boruvchi tashkilotlar va tadbirkorlik hamjamiyati o'rtasida qonunchilik va huquqni qo'llashda vujudga kelayotgan muammolarining ilmiy asoslangan yechimlarni topish samarali tizim yo'lga qo'yilmagan;

yuridik ilm-fan sohasida davlat buyurtmasini shakllantirishda qonun ijodkorlik sub'ektlarining ish rejalari oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining ilmiy ishlar rejalari bilan integrasiyalashuvi past darajada bo'lib qolmoqda va qonun ijodkorligi sub'ektlari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri fundamental va amaliy loyihalarni shakllantirish va tegishli grantlarni ajratish yo'lga qo'yilmagan;

qonunchilikka takliflarni ishlab chiqqan mualliflarga mazkur ilmiy takliflar qonunchilikka joriy qilinganligi to'g'risida dalolatnomalarni berish tartibi mavjud emasligi sababli ilmiy dissertasiyalarni himoya qilish uchun zarur bo'lgan mazkur hujjatlarni olishda insoniylik faktori juda yuqori bo'lib qolmoqda;

ilmiy-innovasion ishlanmalar tijoratlashtirish natijasida olingan daromadlarni taqsimlash tartibi (foizlar) hamda tegishli to'lovlarni amalga oshirish davriyligi yuridik soha olimlari tomonidan ushbu jarayonda ishtirok etishda faolligini susaytirmoqda;

Scopus, Web of Science va boshqa shu kabi ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalarida ilmiy maqolalarni chop etish bo'yicha ko'rsatkichlar yuridik soha olimlari faoliyatini baholashda qo'llanilib, ilmiy maqolalar "yirtqich" jurnallarda chop etishga olib keldi va yuridik sohada ilmiy faoliyatining metrik ko'rsatkichlarni holis yurituvchi milliy bazalarini tuzishni hamda ularni markazlashtirilgan holda dunyo bazalariga integrasiyalashishni taqozo etmoqda.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish uchun yuridik ta'limni rivojlantirish zamonaviy xalqaro andozalar va milliy manfaatlarga javob beradigan huquq sohasida raqobatbardosh yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning ilmiy asoslangan tizimi asosida amalga oshirilishi kerak.

4-bob. Yuridik ta'lim va ilm-fan tizimini takomillashtirishning asosiy prinsiplari va vazifalari

Yuridik ta'lim va ilm-fan tizimini takomillashtirishdan maqsad globallashtirish, raqamlashtirish, jadal iqtisodiy o'sish, jumladan raqamli iqtisodiyot jarayonlari sharoitida kasbiy faoliyatga qodir yuridik kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirishdan iborat.

Yuridik ta'lim va ilm-fan, xususan, yuridik kadrlar tayyorlash tizimi quyidagi **maxsus prinsiplarga** asoslanishi kerak:

inson, jamiyat va davlat manfaatlari mutanosibligi va muvozanatiga, ularning o'zaro javobgarligi;

yuridik kadrlar tayyorlash muammolarini hal qilishda kompleks yondashuv;

jamiyat va davlat ehtiyojlarini hisobga olgan holda oliy yuridik ta'lim tizimini davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshirish;

yuridik kadrlar tayyorlashda tizimlilik va izchillik;

yuridik kadrlarni kasbiy tayyorlashda nazariya va amaliyot o'rtasidagi hamkorlikni samarali va manfaatli tarzda yo'lga qo'yish;

jadal rivojlanish, innovasiyalar, raqamli texnologiyalarni joriy etish va ushbu yo'nalishda kelajak uchun kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratish;

milliy manfaatlar, an'analar va qadriyatlarni hisobga olgan holda jahon yuridik ta'lim makoniga integrasiyalashuv.

Yuridik ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishning **zamonaviy tendensiyalari** quyidagilardan iborat:

ta'limni tizimli va izchil olib borish;

ta'lim dasturlarini ixtisoslashtirish, individuallashtirish, o'qitishning zamonaviy shakl va usullarini qo'llash;

asosiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurligini hisobga olgan holda kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeliga o'tish;

yuridik ta'limni raqamlashtirish va ta'lim jarayonini ta'minlashda axborot-kommunikasiya texnologiyalarining rolini kuchaytirish, ta'limga virtual va qo'shimcha reallik mexanizmlarini joriy etish;

talabalarning amaliy ko'nikmalarini kuchaytirish va mustaqil ta'lim hajmini oshirish;

akademik almashinuv va uzluksiz ta'lim uchun dunyoning ma'lumotlar bazalari va dunyodagi yetakchi huquq maktablariga kirishni ta'minlash;

yuridik sohadagi ilmiy-innovasion ishlanmalarni tijoratlashtirishni jadallashtirish;

Scopus, Web of Science va boshqa shu kabi ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalarida ilmiy maqolalarni chop etish bo'yicha ko'rsatkichlarni yaxshilash va boshqalar.

Yuridik ta'lim va ilm-fanning maqsadlari, prinsiplari va tendensiyalariga erishish bo'yicha **asosiy vazifalar** quyidagilardan iborat:

ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi zamonaviy jahon tendensiyalariga muvofiq yuridik ta'lim tizimini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;

yuridik ta'lim tizimidagi zarur o'zgarishlarni normativ-huquqiy, kadrlar, o'quv-uslubiy va ilmiy ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

yuridik mehnat bozori buyurtmachilari bilan o'zaro hamkorlikni faollashtirish, xususan, buyurtmachilar – tashkilotlar ishtirokida o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha yondashuvlarni takomillashtirish;

raqamli davlat boshqaruvi, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt va boshqalarning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalariga mos keladigan yuridik ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish darajasini oshirish;

hozirgi va kelajak talablariga javob beradigan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, doimiy o'zini-o'zi tarbiyalash va kasbiy o'sish;

bosqichma-bosqich **“Universitet 4.0.”** konsepsiyasiga o'tish hamda professor-o'qituvchi akademik mustaqilligini ta'minlash, shu jumladan har bir professor-o'qituvchiga ilmiy tadqiqot olib borish uchun sharoitlarini yaratish;

talabalarda vatanparvarlik, umuminsoniy fundamental qadriyatlar va axloqiy me'yorlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish.

5-bob. Yuridik ta'lim va ilm-fan tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Dastur quyidagi ustuvor yo'nalishlarni nazarda tutadi:

zamonaviy mehnat bozori talablariga va buyurtmachilar ehtiyojlariga javob beradigan yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yaratish;

ta'lim sifatini oshirish;

zamon va kelajak talablariga oldindan moslashish, huquqiy texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlariga doir muhim ko'nikmalarni shakllantirish;

xalqaro yuridik ta'lim tizimlari bilan integrasiyalashuvini kuchaytirish.

Zamonaviy mehnat bozori talablariga va buyurtmachilar ehtiyojlariga javob beradigan yuridik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish doirasida quyidagilar belgilanadi:

huquqshunoslik kasbining ommabop va yangi yo'nalishlari va mutaxassisliklarini tahlil qilish va aniqlash, amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish va yuridik kadrlarda zarur ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratgan

holda yangi avlod ta'lim standartlari, dasturlari va o'quv rejalarini ishlab chiqish;

yuridik kadrlar tayyorlashni prognozlash va rejalashtirish, ta'limning zarur va samarali shakllarini aniqlash, yuridik kadrlar tayyorlash jarayonida olingan bilimlarning amaliy yo'nalishini mustahkamlash;

ta'lim sifatini ta'minlash va yuridik mutaxassisliklar bo'yicha qabul kvotalariga bozor ehtiyojlarini hisobga olgan holda optimallashtirish;

yuridik kadrlar tayyorlovchi yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish;

huquqni muhofaza qilish, qonunchilik va huquq fanini takomillashtirishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyalar va boshqa tadbirlarni (davra suhbatlari, seminarlar, ish bilan bog'liq uchrashuvlar) muntazam ravishda tashkil etish va o'tkazish;

yangi va tegishli huquq sohalarini rivojlantirish maqsadida yuridik kadrlarni kasbiy tayyorlash uchun magistratura mutaxassisliklarini buyurtmachilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib ishlab chiqish;

yuridik kadrlar tayyorlash sifatini, shu jumladan yuridik kadrlar buyurtmachilari – tashkilotlar ishtirokida tahlil qilish va monitoringini ta'minlash;

milliy va xorijiy tajribani hisobga olgan holda yuridik klinikalar faoliyatini va kadrlar tayyorlashning amaliyot bilan aloqadorligining ish mexanizmlarini takomillashtirish.

Yuridik kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalarini zamonaviy kadrlar zaxirasini shakllantirish va kadrlar salohiyatini mustahkamlash sohasida quyidagilar nazarda tutiladi:

iqtidorli yoshlarni, shuningdek yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini o'qituvchilik va doktoranturaga jalb etish;

yuridik faoliyatni amalga oshirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, yuridik faoliyatda axborot texnologiyalari va axborot-huquqiy resurslardan, shu jumladan sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish, amaliyotni boshqarish hamda bitiruv malakaviy ish va dissertasiyalarni bajarish uchun tajribali yuridik amaliyotchilarni o'quv jarayoniga jalb etish.

Ta'lim sifatini oshirish sohasida quyidagilar belgilanadi:

kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida yuridik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yuridik kadrlar tayyorlashda nazariy bilimlar va amaliy yo'nalishning maqbul uyg'unligini ta'minlash, shuningdek huquqshunoslik kasbi uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish;

ta'lim jarayonining zamonaviy texnologiyalaridan, yuridik mutaxassisliklar bo'yicha talabalar bilan o'quv, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning shakl va usullaridan foydalanishni kengaytirish (elektron ta'lim tizimini rivojlantirish);

muayyan sohadagi tayanch bilimlarni baholash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash, yangi g'oyalarni ishlab chiqish, talaba kompetensiyalari darajasini baholash (diagnostika) tizimlari va vositalarini takomillashtirish qobiliyatini o'zida mujassamlashtirgan o'quv natijalarini kompleks baholashni shakllantirish;

yuridik fanlar sohasida ilmiy tadqiqotlarning fundamental va amaliy ahamiyatini kuchaytirish;

professor-o'qituvchilarning o'quv-uslubiy, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlar (moddiy-texnik, moliyaviy va boshqalar) yaratish;

professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamalarini ish haqi kamaytirilmagan holda tizimli ravishda kamaytirib borish va bu orqali ularning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishini qo'llab-quvvatlash;

ta'lim muhitini axborot transformasiyasiga asoslangan yangi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish, ochiq ta'lim resurslarini yaratish, bulutli texnologiyalardan foydalanish, innovatsion shakllar va o'qitish usullarini qo'llash;

o'quv dasturlari mazmuni, bitiruv malakaviy ishlarining namunaviy mavzulari, magistrlik dissertasiyalari bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

bakalavriat va magistratura dasturlarini amalga oshirishda chet tillarida yuridik mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;

huquq sohasida ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish va ularni moliyalashtirishni ta'minlash;

zamonaviy, sodda tilda yozilgan va jozibador o'quv adabiyotlar (smart book) va amaliy misollarga asoslangan qo'llanmalar (casebook) tayyorlash,

xorijiy adabiyotlarni davlat tiliga tarjima qilish va nashr etish hamda mablag' ajratish.

Xalqaro yuridik ta'lim tizimlari bilan integrasiyalashuvini kuchaytirish sohasida quyidagilar nazarda tutiladi:

akademik almashinuvni ta'minlash, turli darajadagi yuridik ta'lim milliy tizimining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida kredit-modul prinsipi asosida yuridik mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;

qo'shma ta'lim dasturlarini, xususan, xorijiy hamkorlar bilan yuridik mutaxassisliklar bo'yicha ikki diplomli (double degree) oliy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

ta'lim jarayonining yuqori sifatini ta'minlashning muhim tarkibiy qismi sifatida o'quvchilar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va ta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlar, amaliyot o'tashlari uchun harakatchanligini rivojlantirish;

o'qitish, ta'lim mazmunini tayyorlash, o'quv rejalari va dasturlarini ekspertizadan o'tkazish uchun yetakchi xorijiy ekspert va professor-o'qituvchilarni jalb qilish;

xalqaro akkreditasiyani, xususan, xalqaro miqyosda tan olingan va yetakchi xalqaro akkreditasiya tashkilotlari tomonidan ta'lim dasturlarini institusional akkreditasiya va akkreditasiyadan o'tkazishni ta'minlash.

6-bob. Dasturni amalga oshirish mexanizmi

Mazkur Dasturni amalga oshirish bo'yicha TDYU tomonidan yillik chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilishi va qabul qilinishi nazarda tutiladi.

1. Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada rivojlantirishning asosiy vazifalarini amalga oshirish:

ta'lim tizimiga xalqaro ta'lim standartlarini keng joriy etish maqsadida dastavval TDYU, keyinchalik yuridik texnikumlar institusional va ta'lim yo'nalishlarini xalqaro akkreditasiyadan o'tkazish;

o'quv jarayonini egiluvchan ko'nikmalarni (Soft skills), shuningdek loyihaviy yondashuvni (Legal Project Management), amaliy va muammoli ta'limni (keys-stadi) shakllantirishga qaratilgan kompetensiyaga asoslangan yondashuvga muvofiq tashkil etish, ularni singdirish asosida huquqning asosiy prinsiplariga (adolat, erkinlik, tenglik va boshqalar) erishiladi;

mantiqiy fikrlash, tahlil va tadqiqotga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta'limning ilg'or yondashuvlarini (Just-in-Time, Concept mapping metodologiyasi) joriy etish;

amaliy misollar asosida zamonaviy, sodda va jozibali o'quv adabiyotlari (smart book) va o'quv qo'llanmalari (casebook) tayyorlash, xorijiy adabiyotlarni milliy tilga tarjima qilish va nashr etish;

TDYUda "Kiber huquq" (Cyber law) sohasini alohida ta'lim yo'nalishi va ixtisosligi sifatida joriy etish, xususan, raqamli iqtisodiyot va umuman kibermakonning huquqiy asoslarini tushunish va yaratish qobiliyatiga ega kadrlarni tayyorlash;

huquqiy sohada fanga yo'naltirilgan ta'limga o'tish, davlat va jamiyat taraqqiyoti, huquqiy islohotlar va qonun ustuvorligini ta'minlashga asos bo'ladigan ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish hamda ularning natijalarini ommalashtirish va amaliyotga joriy etishni ta'minlash;

xalqaro tan olingan ta'lim muassasalari reytingiga kirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali mahalliy yuridik ta'limning raqobatbardoshligini oshirish.

2. TDYU faoliyatini, ta'lim dasturlarini, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishni, ta'lim texnologiyalari va o'qitish uslublarini xalqaro standartlarga mos ravishda o'zgartirish:

oliy ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha yetakchi xalqaro agentliklar talablariga muvofiq fanlarni xalqaro standartlar asosida erta ixtisoslashtirish va chuqur o'rganish;

o'quv jarayoniga amaliy keys texnologiyalarini joriy etish, muammolarni hal etishga yo'naltirish, munozaralar tashkil etish va huquqni qo'llash muammolarini muhokama qilish usullarini qo'llash;

iste'dodlarni aniqlash, bilimlarni to'plash, kelajakka oid Konsepsiyalarni shakllantirish va ilmiy natijalarni tijoratlashtirish infratuzilmasini yaratish;

akademik mustaqillik doirasida xalqaro standartlar asosida boshqaruv mexanizmlarini modernizasiya qilish, kollegial organlarning vakolatlarini kengaytirish, kafedralarni optimallashtirish asosida pedagoglar korpuslari (departamentlar) tashkil etish;

kengaytirilgan reallik texnologiyalarini joriy etgan holda “Universitet 4.0” Konsepsiyasiga bosqichma-bosqich o'tish, professor-o'qituvchining ilmiy mustaqilligini ta'minlash, shu jumladan, shaxsiy ilmiy dasturlar (syllabus) ishlab chiqish va ular asosida o'qitish, har bir o'qituvchining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishi uchun sharoit yaratish orqali universitetdagi ta'lim muhitida ilmiy asoslangan bilimlarni shakllantirish;

xalqaro hamkorlikni faollashtirish, dunyoning yetakchi universitetlari bilan akademik almashinuvlarni amalga oshirish, qo'shma huquqiy tadqiqotlar, yuridik kadrlar tayyorlash (double degree) bo'yicha xorijiy hamkorlar bilan qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirish;

nazariy bilim va kasbiy kompetensiyalarni davriy baholash mexanizmlarini joriy etish, professor-o'qituvchilar tarkibini zarur kompetensiyalarga maqsadli tayyorlash va maqsadli malaka oshirishni ta'minlash.

3. O'rta professional yuridik kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish hamda yuridik texnikumlarni TDYU bilan 1+3 yoki 2+2 integrasiyalashgan dastur asosida Yuridik texnikum+Yuridik oliy ta'lim muassasasi tizimini quyidagicha yo'lga qo'yish:

Integrasiyalashgan o'qitish dasturining “1+3” tizimi bo'yicha yuridik texnikum o'quvchisi 1-kursni yakunlaganidan so'ng Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlarida qatnashgan holda, o'qishga tavsiya etilgan taqdirda yuridik mutaxassislik beruvchi oliy ta'lim muassasalariga 2-kursdan boshlab o'qishni davom ettiradi. Test sinovi natijasiga ko'ra o'qishga tavsiya etilmagan o'quvchi o'zi tahsil olayotgan yuridik texnikumning 2-kursidan o'qishini davom ettiradi;

Integrasiyalashgan o'qitish dasturi o'qitishning “2+2” tizimi bo'yicha yuridik texnikum o'quvchisi 2-kursni yakunlaganidan so'ng Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlarida qatnashgan holda, o'qishga tavsiya etilgan taqdirda yuridik mutaxassislik beruvchi oliy ta'lim muassasalariga 3-kursdan boshlab o'qishni davom ettiradi.

4. Yuridik ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish:

O'zbekiston milliy huquq tizimi haqida asosiy ma'lumotlarni taqdim etish uchun onlayn platforma, shuningdek huquqiy sohadagi ilmiy fondni ilmiy-

texnikaviy ma'lumotlar bazasi (Big Data)ga aylantirish orqali xalqaro standartlarga muvofiq "UzLaw – huquqiy tadqiqotlar milliy ma'lumotlar bazasi" elektron platformasini yaratish;

to'ldirilgan reallik texnologiyalarini joriy etgan holda masofaviy ta'lim dasturlarini joriy etish;

respublika yuridik fakultetlarining milliy reytingini va Markaziy Osiyo davlatlari yuridik fakultetlarining xalqaro fanlar reytingini aniqlash tizimiga ega bo'lgan Markaziy Osiyo huquq fakultetlari alyansini shakllantirish.

7-bob. Dasturni amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

Dasturni amalga oshirish natijalari huquqshunoslarning kasbiy malakasiga qo'yiladigan ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan belgilangan talablarni hisobga olgan holda yuridik ta'limning maqsad va mazmunini yangilashda namoyon bo'lmoqda.

Dasturni amalga oshirish doirasida xalqaro standartlarni qo'llash orqali respublika yuridik ta'lim va ilm-fan hamda kadrlar tayyorlash tizimida quyidagi natijalarga erishish rejalashtirilgan:

tegishli yangi kompetensiyalarga ega zamonaviy huquqshunoslarni tayyorlash tizimini shakllantirish;

ijtimoiy jihatdan belgilab berilgan yangi kompetensiyalarni va yuridik ta'limning kompetensiyaga asoslangan modellari va yangi ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

muammoli-izlanish, faol, amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish strategiyalari asosida o'quv jarayonining shakllari, usullari, texnologiyalarini modernizatsiya qilish;

zamonaviy yurisprudensiya muammolarini, izchillik va uzluksizlik tamoyillarini hisobga olgan holda yuqori malakali ilmiy xodimlarni tayyorlashni takomillashtirish;

huquq sohasidagi muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish va bartaraf etishning muqobil yo'nalishlarini taqdim eta oladigan tadqiqot ishlarini jadal sur'atlarda amalga oshirish;

axborot jamiyati, raqamlashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida uzluksiz yuridik ta'lim tizimini resurs ta'minotini takomillashtirish.